

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KURBANOVA FERUZA ILXAMOVNA

O‘ZBEK INTELLEKTUAL-FALSAFIY ROMANLARI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on
philological sciences**

Kurbanova Feruza Ilxamovna

U‘zbek intellektual-falsafiy romanlari poetikasi..... 5

Курбанова Феруза Илхамовна

Поэтика узбекских интеллектуально-философских романов 33

Kurbanova Feruza Ilkhamovna

Poetics of Uzbek intellectual-philosophical novels..... 67

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 71

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KURBANOVA FERUZA ILXAMOVNA

**O‘ZBEK INTELLEKTUAL-FALSAFIY ROMANLARI
POETIKASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil792 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

To‘rayev Damir

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirov Azmiddin Normamatovich

filologiya fanlari doktori, professor

Yoqubov Islomjon Axmedjanovich

filologiya fanlari doktori, professor

Qo‘chqorova Marhabo Xudayberganovna

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, 3-qavat, 310-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi 17. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi (2026-yil “_____” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

G.X.Ernazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.K.Ochilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.N.Nasirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida intellektual romanga xos belgilar, uning genezisi, tadrijiy bosqichlari, adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyati va poetikasiga doir nazariy qarashlarga e'tibor qaratilmoqda. Natijada XX asr boshlarida tarixiy roman shaklining modifikatsiyaga uchrashi natijasida maydonga kelgan intellektual roman tipi roman janrining mushtarak shakli ekanligi aniqlandi. Intellektual roman elementlari qadimgi davr jahon nasrida, romanchiligida mavjud bo'lgan. Romanning bu janriy ko'rinishi dunyodagi ijtimoiy-tarixiy voqelikni birvarakayiga falsafiy va badiiy idrok etish, turli nuqtayi nazar va dunyoqarashlar, falsafiy ta'limotlar rakursidan baholashning tipik shakli, usuli bo'lib qoldi. Bu esa jahon, qolaversa, o'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman shakli va tipining o'ziga xos jihatlari, asar g'oyasi va qahramonning intellektual-aqliy qobiliyati va tasavvurida yuzaga kelayotgan evrilishlarni tasvirlashda ijodkor mahorati va individual qobiliyati, estetik ideali hamda an'ana va vorisiylikning nazariy masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning yaratilishini ta'minladi.

Dunyo adabiyotshunosligida intellektual roman muammosi ayrim fundamental tadqiqotlar, maqolalar darajasida, muayyan adib ijodi yoki muayyan asarlar materialida ilmiy tadqiq etilgan. O'zbek adabiyotshunosligida intellektual adabiyot, intellektual lirika, intellektual roman xususida ham ayrim-ayrim fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Shunday bo'lishiga qaramasdan, "intellektual roman" atama sifatida jahon adabiyotshunosligida so'z san'atiga oid nazariy manbalarda ham, sohaga oid lug'atlarda bir qator nazariy qarashlar mavjud bo'lsa-da, ayrim holatlarda "falsafiy roman" termini bilan izohlanadi. Jahon tarixiy poetikasi va adabiyot nazariyasiga doir ilmiy qarashlarda hozirga qadar intellektual romanning umumlashma, yaxlit tizimga keltirish imkoniyatiga ehtiyoj mavjud.

Mamlakatimizda romannavislik tajribalari bir asrdan ziyod muddatlik an'anaga ega bo'lib, o'tgan asrimiz boshlarida Abdulla Qodiriyning jahon romannavisligi tajribalariga uyg'un, janrning mukammal namunasi bo'la oladigan ikki asari yaratilganligi o'zbek romanchiligida katta ma'naviy qadam vazifasini bajardi. Zero, romanlar so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, xalqimiz tarixi, o'tmish ajdodlar merosi, yosh avlodni ma'naviy kamol topishida bebaho madaniy meros yodgorligi sifatida e'zozlanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Millionlab odamlarning e'tiborida bo'lgan, madaniyat, adabiyot va san'at degan muqaddas dargohga qadam qo'ygan har bir ijodkor, hech shubhasiz, avvalo, o'z xalqining qalbiga quloq solib, uning dardiga darmon bo'lishga intiladi"¹. Shunday ekan, XX asr boshlaridan 80–90-yillarigacha o'zbek adabiyotida romanchilik an'anaviy tipdagi uslubda davom etib, ma'lum bir g'oyaviy maqsadni badiiy talqin etishga harakat qildirilgan bo'lsa-da, ammo badiiy mukammal,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O'z.AS, 2017-yil 4-avgust. // <https://kknews.uz/oz/1715html>.

o'quvchini so'z san'ati asosida ilhomlantira oladigan mukammal syujetga ega asarlar ham yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Mustaqillik yillarida ijodkorning syujet tanlash, uning turli rakurslarda badiiy ifoda etish jarayonlaridagi mustaqil ijodkorona izlanishlari janr kanonlarida shakl va mazmuniy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Voqelikni poetik idrok etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan roman janrida ham ushbu imkoniyatlar ko'plab adiblarning yangicha talqinlarda ijod qilish imkoniyatini yaratdi. Intellektual-falsafiy roman ham ana shu ijodiy jarayon mahsuli bo'lib, uning mavzu imkoniyatlari ham kengaydi. Ammo nazariy adabiyotlarimizda romanning bu modifikatsion ko'rinishi haqida deyarli fikrlar bildirilmadi. Janrga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlardagina intellektual-falsafiy roman, roman modifikatsiyasi haqidagi ayrim fikrlarga duch kelamiz. Roman mazkur modifikatsion ko'rinishining o'zbek adabiyotida ham paydo bo'lgani, uning mukammal namunalari yaratilgani ijod ahlining mazkur tajribalarini nazariy umumlashtirish, intellektual roman taraqqiyoti va istiqboli muammosiga doir tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar Akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-sonli "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-sonli "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Intellektual-falsafiy roman, uning nazariy tavsifi, individual namunalarning turli muammolar doirasidagi ilmiy tadqiqi, shuningdek, o'zbek intellektual-falsafiy romanlarining ayrim masalalari jahonning yetakchi fan va ta'lim markazlarida, xususan, Ankara Universiteti, Istanbul Universiteti (Turkiya); Oksford, Kembrijd universitetlari (Buyuk Britaniya); Suleyman Demirel Universiteti, Aligarh Muslim

University, Delhi University (Hindiston); Azərbaycan Milli elmlər akademiyası Nizami adına adabiyat instituti (Ozarbayjon); Институт восточных рукописей в Санкт-Петербурге (Rossiya); Институт Востоковедение АН Украины им. А. Кримского (Ukraina); Instituti zamon, adabiyot, sharqshinosy va merosi xattii ba nomi Ro'daky (Tojikiston); O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida olib borilmoqda².

Jahon adabiyotida roman modifikatsiyasi, intellektual-falsafiy roman namunalarining san'at qonuniyatlari nuqtayi nazaridan tahlili, o'zbek adabiyotida roman va intellektual-falsafiy roman taraqqiyoti kabi masalalar yuzasidan nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda (Oksford universiteti, Istanbul Universiteti, Gazi Universiteti, Azərbaycan milli elmlər akademiyası Nizami adına ədəbiyyat İnstitutu, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti).

Jahon adabiyoti hamda zamonaviy o'zbek adabiyotida roman modifikatsiyasi, intellektual-falsafiy roman ko'rinishining shakllanishi va taraqqiyoti, intellektual-falsafiy romanning nazariy xarakteristikasi, alohida namunalari tahlili, intellektual-falsafiy roman istiqboli kabi masalalarning ilmiy o'rganilishi dolzarb ilmiy muammolardandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida roman janri, genezisi, tadrijiy rivojlanish bosqichlari, turlari va poetik masalalariga doir izlanishlar V. Jirmunskiy, V. Vinogradov, R. Bart, M. Baxtin, Yu. Borev, M. Xrapchenko, L. Chernes, A. Kuzmin, G. Pospelov, V. Xalizev singari olimlarning fundamental tadqiqotlarida o'rganilgan³. Ayniqsa, roman janrining ichki shakli bo'lgan intellektual-falsafiy roman ko'rinishi XX asr boshlarida tarixiy romanning modifikatsiyaga uchrashi natijasida maydonga keldi. Intellektual roman atamasi nemis adibi Tomas Mann tomonidan ilmiy iste'molga kiritildi va roman mazkur ko'rinishining ilk namunalari shu adib tomonidan

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://sllc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <http://www.um.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; www.iaas.msu.ru; <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; www.orient.spbu.ru/ru; <http://www.orientalstudies.ru>; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institutyazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru>; <http://navoiy-uni.uz/uzk>; <http://www.samdu.uz> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

³ Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970. – С. 266; Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1979. – С. 85; Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1973/ – С. 207; Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979. – С. 422; Рикёр П. Герменевтика. Этика. Политика: Московские лекции и интервью. – Москва: Академия, 1995. – С. 160; Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX-XX вв.: Трактаты. Статьи Эссе. – Москва: Издательство Московского государственного университета, 1987. – С. 512; Виноградов В. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 404; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва, 1981. – С. 399; Пospelov Г. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978; Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999.

yaratildi⁴. Mazkur adib ijodida intellektual-falsafiy roman yaratish tajribalari borasida dastlab D. Belyakov⁵ tadqiqotlarida ko'zga tashlansa, tarixiy davrni badiiy-falsafiy idrok etish, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqelikka turli falsafiy nuqtayi nazarlardan qarash va baholash, jahonning istiqboldagi ma'naviy-ma'rifiy manzarasini tasavvur etish, turli rakurslarni bir fokusda jamlash, umumiyroq qilib aytganda, voqelikka nihoyatda keng ko'lamlarda qarash imkonini beruvchi ilmiy tamoyillarni nazariy asoslash N. Pavlova, I. Ratke, M. Gelt, V. Simakov, Y. Davidov, T. Gurina, A. Guliga, N. Zana va boshqa ko'plab rus olimlari tadqiqotlarida kuzatiladi⁶.

O'zbek adabiyotida intellektual roman XX asrning so'nggi choragida O. Muxtor, X. Do'stmuhammad, I. G'aniyev, U. Hamdam, I. Sulton, A. Ismoil singari adiblarning mahoratlari, intellektual-badiiy ideallari asosida yaratildi. Intellektual-falsafiy, yoxud intellektual roman shakli, uning o'ziga xos muammolari, adabiyotshunosligimiz taraqqiyotidagi ahamiyati kabi masalalar borasida I. Sultonov, M. Qo'shjonov, O. Sharafiddinov, S. Mirvaliyev, U. Normatov, H. Umurov, B. Nazarov, N. Karimov, B. Sarimsoqov, A. Rasulov, D. To'rayev, Y. Solijonov, H. Boltaboyev, S. Meliyev, D. Quronov, G'. Murodov, U. Jo'raqulov kabi o'zbek olimlarining tadqiqotlarida u yoki bu mavzu doirasida fikr

⁴ Манн. Т. Об учении Шпенглера // <https://russianway.rhga.ru/upload/main/014sh.pdf>; Манн Т. Доктор Фаустус. – Москва: Художественная литература, 1960. – 640 с.; Манн Т. Иосиф и его братья: в 2 т. Том 1. – Москва: Правда, 1987. – С. 720; Манн Т. Иосиф и его братья: в 2 т. Том 2. – Москва: Правда, 1987. – С. 720; Манн Т. Доктор Фаустус. – Москва, 2004. – С. 570.

⁵ Беляков Д. «Волшебная гора» Томаса Манна: от романа испытания к роману становления: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2018. – С. 24; Петров Д. Томас Манн как мыслитель и гуманист: Опыт социально-философского анализа: дисс. ... канд. философ. наук. – Москва, 2003. – С. 153; Днепров В. Интеллектуальный роман Томаса Манна // Вопросы литературы, 1960. – № 2; Мотылева Т. Томас Манн после 1918 года // История немецкой литературы в 5 т. – Москва: Наука, 1976. – С. 453-493; Гельт М. Традиции интеллектуального романа в произведениях Т. Манна и Г. Гессе // «Гуманитарные и социальные науки», 2013. – № 4. – С. 123-132; Беляков Д. Образ автора в романе Т. Манна «Волшебная гора» // Вестник Московского государственного лингвистического университета. – Москва, 2016. – № 3 – С. 80-96; Беляков Д. Образ Лео Нафты в «Волшебной горе» Т. Манна и культурно-историческая революция начала XX века XXVIII Пуришевские чтения. «Русская революция 1917 года в литературном сознании Запада» / Отв. ред. М.А. Дремов. – Москва: МПГУ, ООО Сам полиграфист, 2016. – С. 9-10; Беляков Д. От испытания к становлению: жанровая объективация этапов эволюции главного героя романа Т. Манна «Волшебная гора» // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Языкознание и литературоведение. – Москва, 2015. – № 23 (734). Художественное сознание и действительность. – С. 38-66; Беляков Д. Психоанализ в романе Т. Манна «Волшебная гора»: между просветительским психологизмом и аналитической психологией // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Серия Филологические науки. – 2013. – № 21 (681). Слово в языке и слово в литературе. – С. 9-34.

⁶ Павлова Н. Интеллектуальный роман // История немецкой литературы: Новое и новейшее время. – Москва: РГГУ, 2014. – 612 с.; Ратке И. Русская интеллектуальная проза 20-х годов XX века (Б. Пильняк, Е. Замятин, В. Набоков): Автореф. дисс. ...кан. филол. наук. – Волгоград, 2005. – С. 24; Гельт М. Образ героя немецкого интеллектуального романа XX века (на примере произведений Т. Манна и Г. Гессе) // Гуманитарные и социальные науки. – 2013. – № 3. – С. 105-110; Гельт М. Традиции интеллектуального романа в произведениях Т. Манна и Г. Гессе // Гуманитарные и социальные науки, 2013. – № 4. – С. 123-132; Симаков В. Герман Гессе и интеллектуальный роман // <https://levelvan.ru/pcontent/gesse-7/znachenie-intellektualny-roman>; Бардыкова И., Бардыкова Н. Проблемы культуры и духовности в романе Г. Гессе «Игра в бисер» // Научные ведомости серия гуманитарные науки, 2014. – № 26 (197). – С. 32-39; Гулыга А. Интеллектуальная проза Германа Гессе. – «Новый мир», 1977 – № 9; Давыдов Ю. «Интеллектуальный роман» и философское мифотворчество // «Вопросы литературы», 1977. – № 9. – С. 127-171; Гурина Т. Некоторые предпосылки изучения авторской позиции в интеллектуальном романе XX века // Проблема автора в художественной литературе. Выпуск 1. – Ижевск, 1974. – С. 200-209; Зана Л. Жанр интеллектуального и философского романив: типологичне зиставлення // Вісник Маріупольського державного гуманітарного університету. Сер. Філологія. –Київ, 2014. – С. 32-38.

bildiriladi⁷. Shuningdek, I. Yoqubovning “Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi” monografiyasida roman janri shakllari borasida fikr-mulohazalar bildirilsa-da, ammo intellektual romanning o‘ziga xos belgilari maxsus tadqiqot obykti sifatida qo‘yilmaydi. Intellektual roman va unga xos belgilar borasida M. Xolbekovning kuzatishlarida ma’lum bir nazariy qarash, ilmiy mushohadaga kirish va romanga xos jihatlar nisbatan tahlil usuli bo‘la olsa, tadqiqotchi D. Ro‘ziyeva Oskar Uayldning “Dorian greyning portreti” asarini intellektual roman sifatida tahlil qiladi⁸. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman tipining shakllanishi, genezisi, belgilari, intertekstuallik va interpretatsiyasi hamda poetik tizim sifatidagi ahamiyati yaxlit tadqiqot sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi: Tadqiqot Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Adabiy hodisalarning tarixiy tadriji va nazariy taraqqiyoti masalalarini o‘rganish” (2021-2025) mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jahon adabiyotshunosligidagi intellektual-falsafiy romanga oid qarashlar va fikr-mulohazalarni umumlashtirish asosida janrning mazkur modifikatsion ko‘rinishini nazariy tavsiflash, shuningdek, o‘zbek romanlaridagi mifologik, ilm-fan yutuqlarini badiiy ifoda etuvchi intellektual-falsafiy roman istiqbollari nazariy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o‘zbek adabiyotida intellektual-falsafiy romanlarning yuzaga kelishi, genezisi, va tadrijiy rivojlanish bosqichlari, o‘ziga xosligini ochib berish; tarixiy roman modifikatsiyasi natijasi o‘laroq yaratilgan “Jinlar bazmi yoxud katta o‘yin” romanini ilmiy tahlil qilish;

Omon Muxtor romanlarida intellektual-falsafiy romanga xos bo‘lgan uydirma makon, mifopoetika va intertekstuallik singari nazariy hodisalarni ilmiy dalillash;

⁷ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Қўшжонов М. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2018; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент, 2001; Тўраев Д. Маънавий олам талқинлари. – Тошкент, 2020; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Андижон: Ҳаёт, 2002; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом, 2015.

⁸ Холбеков М. Ҳаёт хошиясидаги битиклар ёхуд интеллектуал роман хусусида // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2013. 42-сон; Рўзиева Д. Интеллектуал романда бадий образ ва услуб // “Хорижий тилларни ўқитишнинг муҳим масалалари (“Topical issues of teaching foreign languages”))” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2021. – Б. 290-296; Рузиева Д. Intellectual novel symbols and genre formation in national literature // “Topical issues of teaching foreign languages” Republican scientific-practical online conference on March 17-18. – P. 316-322; Қодирова Г. “Чўл бўриси” – ички “мен”лар мунозараси ҳақида роман // <https://kun.uz/kr/news/2023/10/22/>; Акбаров М. Рухий олам изтироблари // Ҳессе Ҳ. Чўл бўриси. Иккинчи нашри. Таржимон: Мирзаали Акбаров. – Тошкент: Файласуфлар, 2015. – Б. 4-5; Qurbonova F. Intellektual-falsafiy roman fanniy-badiiy asar sifatida // “Yangi O‘zbekistonda o‘zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2024-yil, 21-oktabr. – B. 184-186; Zulfanova N. Merdokning badiiy ongi va uning “qora shahzoda” intellektual romani // <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article>; Рўзиева Д. Мўъжизакор мажоз // Тафаккур, 2021 йил, 3-сон. – Б. 123-124.

Isajon Sulton intellektual-falsafiy romanlarida zamonaviy ilm-u fan yutuqlari va falsafa uyg'unligini "Genetik" romani misolida aniqlash;

inson, borliq va Yaratuvchi munosabatlarining tasavvufiy-zamonaviy interpretatsiyasini "Boqiy darbadar" romani misolida ochib berish.

intellektual-falsafiy romanlarda zamonaviy taraqqiyot va falsafa uyg'unligi, uning badiiy ifoda usullarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba", "Aflotun", Isajon Sultonning "Genetik", "Boqiy Darbadar", Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif", Abduhamid Ismoilning "Jinlar bazmi yoxud katta o'yin" va boshqa bir qator intellektual-falsafiy romanlari tanlandi. Shuningdek, dissertatsiyada intellektual-falsafiy romanga asos solgan Tomas Mann, jahon adabiyotining German Gesse, Mixail Bulgakov kabi adiblari asarlari ham tahlilga tortildi.

Tadqiqotning predmetini jahon va o'zbek adabiyotida yaratilgan intellektual-falsafiy romanlar, ularning janriy tabiatini belgilash, uydirma makon, mifopoetika, intertekstuallik, ilm-u fan yutuqlarining zamonaviy taraqqiyot va insoniyat taqdiri dilemmalarining intellektual-falsafiy tarzidagi badiiy interpretatsiyasi muammolari tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik, mifopoetik, psixoanalitik, statistik, hamda germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

jahon adabiyotida "intellektual roman" atamasini birinchi bor ilmiy muomalaga kiritgan va uning dastlabki namunalarini yaratgan nemis adibi Tomas Mann ijodida intellektual-falsafiy roman tipining asosiy janriy va poetik xususiyati dalillangan;

jahon va o'zbek adabiyotshunosligida intellektual-falsafiy romanning nazariy muammolari, tarixiy-modifikatsion ko'rinishiga xos umumiy tavsif belgilari qiyoslangan;

o'zbek intellektual romanining genezisi, uning muayyan tarixiy davrda shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan sabab va omillar ilmiy asosda asoslangan;

Omon Muxtor, Isajon Sulton va Abduhamid Ismoilov kabi yozuvchilar tomonidan yaratilgan intellektual-falsafiy romanlarni ilmiy tadqiq etish asosida o'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman rivojining istiqbollari ko'rsatilgan;

o'zbek adabiyotida yaratilgan intellektual-falsafiy romanlarda mifopoetika, uydirma makon, intertekstuallik, tarixning falsafiy-plyuralistik idrok va uning yangicha badiiy talqinlari, ilm-u fan yutuqlarining badiiy-intellektual interpretatsiyasi, shuningdek, zamonaviy taraqqiyot hamda insoniyat taqdiriga oid futurologik qarashlar, adabiyot va hayot dialektikasi, zamonaviy insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, borliq va o'z Yaratuvchisiga munosabati borasidagi adabiy-estetik qarashlar va ijodkor individual mahorat muammolari isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

intellektual-falsafiy roman tipining nazariy asoslari, badiiy-estetik ahamiyati, intellektual qahramon obrazi va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, timsoliy ifodalarning roman poetikasini o'rganish tamoyillari uchun xizmat qiladi;

intellektual roman atamasini fanga olib kirgan va uning ilk namunalarini yaratgan Tomas Mannning, shuningdek, jahon adabiyotida romanning mazkur modifikatsion tipi uchun amaliy mezonlar belgilandi;

o'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman ko'rinishining XX asr oxirlarida maydonga kelishining sabablari, omillari aniqlandi;

intellektual-falsafiy romanda badiiy-estetik g'oyani ifodalashda uydirma makon, mifopoetika va intertekstuallikning o'rni va ahamiyati Omon Muxtor romanlari materiallari misolida ko'rib chiqildi;

intellektual-falsafiy romanda ilm-u fan yutuqlarining badiiy interpretatsiyasi davrning eng dolzarb ijtimoiy, axloqiy-ma'naviy muammolarini yoritish, o'zbek xalqining jahon mutaraqiy xalqlari o'rtasidagi o'z o'rnini ko'rsatish va milliy istiqloqlarning tarixiy ahamiyatini belgilashga yo'naltirilganligi Isajon Sultonning "Genetik" romani materialida asosida ishlab chiqildi;

inson, uning obektiv borliq va olam-u odamning Yaratuvchisi bilan o'zaro munosabatlari, ekzistensializm, insonning yaratilishidan maqsad-muddao va buni o'sha insonning qay darajada, qay tarzda anglashi, inson hayotining mazmuni, insonning jamiyatdagi o'rni va vazifalari kabi falsafiy muammolarning badiiy talqini masalasi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" intellektual-falsafiy romani tahlili asosida yoritib berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorij va respublika miqyosida ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'qilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va maqolalar, hamda obyektga ilmiy yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, obyekt sifatida olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy qarashlar va natijalarning hayotiy tajribalarni amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman shaklining tarixiy davr va kontekstda maydonga kelganligining ilmiy asoslangani, genezisi va shakllanish omillari, sabablarining aniqlangani, milliy adabiyotda tutgan o'rni, o'ziga xosligi, badiiy-estetik ahamiyati va poetik ifodasining yangicha tasvir usullari ilk bor ilmiy tahlilga tortilgani, chiqarilgan xulosalar intellektual-falsafiy roman shakliga xos muammolarga bag'ishlangan adabiyotshunoslikda mavjud nazariy masalalarni boyita olishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy romanga xos nazariy muammolarni o'rganish, ijodkorlarning individual mahorati va voqelikni intellektual ruhda tasvirlash, qahramon intellektual xulosasi va aqliy tafakkurga doir poetik idrokka doir nazariy xulosalar va tavsiyalaridan Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi", "Hozirgi adabiy jarayon", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Badiiy tahlil asoslari", "Jahon adabiyoti" kabi fanlardan o'quv adabiyotlari yaratish, ma'ruza, amaliy hamda seminar mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman tipi, uning belgilari va asosiy tamoyillariga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

Jahon va o‘zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman, uning nazariy asoslari, tarixiy modifikatsion ko‘rinishiga xos belgilar, Tomas Mann ijodida intellektual-falsafiy roman tipining asosiy janriy va poetik xususiyatiga doir nazariy qarashlardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2023-yilda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasviri” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Qoraqalpoq Gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining № 12/1 2025-yil 15.10 ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotning adabiyotshunoslikning nazariy muammolariga doir yangi ilmiy qarashlar asoslanishiga erishilgan;

Zamonaviy adabiyotda intellektual-falsafiy roman ko‘rinishlari milliy adabiy jarayonda Omon Muxtor, Isajon Sulton, shuningdek, xorijda yashayotgan o‘zbek adibi Abduhamid Ismoil tomonidan yaratilgan intellektual romanlariga oid ilmiy-nazariy xulosalaridan O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi tomonidan 2021–2024-yillarga mo‘ljallangan O‘A-21-24 raqamli “Turkiy xalqlar, o‘zbek-ozarbayjon adabiy-madaniy aloqalar” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazining 2025-yil, 02-dekabrda № 157/AZE ma’lumotnomasi). Natijada adabiy ta’sir va adabiy aloqa hodisalari, bir ijodkorning keyingi davr adabiyotiga ta’siri, an’ana va ijodiy vorislik masalalariga doir nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilgan;

O‘zbek adabiyotshunosligida intellektual-falsafiy romanlarda mifopoetika, uydirma makon, intertekstuallik asoslari aniqlanib, ilm-u fan yutuqlarining badiiy intellektual zamonaviy taraqqiyot mezonlarni ishlab chiqilganiga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258. “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-dekabrda №04/1-5899-sonli ma’lumotnomasi). Natijada intellektual-falsafiy romanlarga doir nazariy qarashlar asosida o‘zbek adabiyotining ko‘p tilli elektron platformasi ma’lumotlarini ishlab chiqishga erishilgan;

O‘zbek adabiyotida yaratilgan intellektual-falsafiy romanlarda zamonaviy taraqqiyot va falsafa uyg‘unligi, uning poetik ahamiyatiga doir nazariy qarashlardan Oliy majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan “Jadidlarning jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirishga ta’siri” nomli davlat amaliy loyihasida foydalanilgan (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazining ML 01/01-82-son 2025-yil 26-sentabrda ma’lumotnomasi). Natijada XX asrning boshlarida tarixiy romanning modifikatsiyaga uchrashi, hozirgi o‘zbek adabiyotida yaratilgan intellektual-falsafiy romanlarda tasvirga olingan qahramonlar xarakteri misolida huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika, 6 tasi xorij jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Hajmi 237 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojida ustuvor yo'nalishlarga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi asoslanib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tuzilishi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Intellektual-falsafiy roman-janrning yangi ko'rinishi sifatida”** deb nomlangan birinchi bobning dastlabki faslida *“XX asr intellektual-falsafiy romanchiligi hamda roman modifikatsiyasi tushunchasi”* masalasi o'rganilgan. Roman janri imkoniyatlari nihoyatda keng. Romanda tarixiy-ijtimoiy voqelikning keng manzaralarini aks ettirish, tanlangan hayotiy materialni vertikal va gorizontal keng tasvirlash, xarakterlarni har tomonlama va yorqin gavdalandirish, chuqur psixologik dalillash imkoniyatlari boshqa janrlarga qaraganda kengroq. Roman janrida mavjud bo'lgan imkoniyat-portret, peyzaj, kiritma hikoya, epilog, prolog, maktub va kundaliklar, lirik chekinishlar, dialog va monologlar, she'rlar, ekspozitsiya, retrospeksiya va shu kabi badiiy unsurlarning aksariyati yoki barini birvarakayiga qo'llash imkoniyati boshqa janrlarda deyarli yo'q.

Roman bir vaqtning o'zida epiklik bilan birga lirika, drama elementlarini ham o'zida voqelantira oladi. Hayotiy materialning taqdim etilishiga ko'ra inversion, parallel, polifonik, halqaviy, konsentrik, retrospektiv, hoshiyaviy kabi kompozitsiya ko'rinishlarning barini bu janrda qo'llash imkoniyati bor. Shuning uchun roman janri modifikatsiyaga moyil, eng ko'p o'zgargan, eng ko'p takomillashgan janrlardan biri hisoblanadi. “Har bir davrning badiiy estetik talab-ehtiyojlari romanga ma'lum o'zgarishlar kiritadi. O'tgan davr mobaynida romanning turli (ritsarlik romani, tarbiya romani, gotik roman, sarguzasht-detektiv, ijtimoiy-psixologik, tarixiy-biografik, satirik va h.k.) janr ko'rinishlari yaratildi”⁹. Darhaqiqat, nasrning ushbu yirik hajmli janri hisoblangan roman davr talablariga mos holda doimiy o'zgarib boradigan janr sanaladi.

She'riy janrlar modifikatsiyasi masalasini o'rgangan tadqiqotchi Quvonchbek Mamiraliyev modifikatsiya hodisasiga quyidagicha ta'rif beradi: “Modifikatsiya

⁹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 251.

tushunchasi faqat adabiy-badiiy jarayonlarga emas, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy, psixologik, iqtisodiy, siyosiy hayotiga ham xos hodisa sanaladi. Ma'lum bir mezonlarning, qonuniyatlarning boshqa turlari bilan muayyan chegaralarda birlashishi, o'zgarishlarga uchrashini anglatadi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, modifikatsiya-ko'rinish, turlanish, shaklini o'zgartirish, o'zgargan shakl, holat degan ma'noni bildiradi"¹⁰. Q. Mamiraliyevning yozganlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, modifikatsiya, aslida, barcha janrlarga xos xususiyat ekan. Modifikatsiyada janrni janr sifatida barqaror saqlab turguvchi sterjen saqlangan holda boshqa ikkilamchi tomonlar muayyan darajada o'zgarishga uchraydi, boshqa janr elementlarini qabul qiladi, transformatsiyalashuv sodir bo'ladi.

Q. Mamiraliyev o'z dissertatsiyasida nafaqat lirik janrlar, balki umuman, badiiy adabiyotdagi modifikatsiya hodisasi ham birmuncha batafsil yoritgani bois, biz bu yerda modifikatsiya hodisasi va uning nazariy tavsiflariga chuqur to'xtalib o'tirmaymiz. Chunki, ma'lum bo'ladiki, modifikatsiyaning nazariy o'rganilishi va tavsifi milliy adabiyotshunosligimizda tayin etilgan ekan. Bu yerda takrorga ehtiyoj yo'q, deb o'ylaymiz. Q. Mamiraliyev turli lug'atlarda, nazariy adabiyotlarda modifikatsiyaga berilgan ta'riflarni keltiradi. Modifikatsiya muammosiga bag'ishlangan fundamental ilmiy tadqiqotlarni muhokamaga tortadi. Binobarin, M. Alekseeva, A. Borov, J. Burseva, G. Bineva, M. Petrova, S. Artyomovalarning dissertatsiyalaridagi fikrlarni umumlashtiradi. O'zbek olimlaridan D. Quronov, N. Sultonovalarning fikrlariga murojaat qiladi¹¹.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, intellektual romanda ilm-fan va san'at o'rtasidagi chegara yo'qolib ketadi. Badiiy asarda falsafiy g'oyalar berilganidek, falsafa badiiy shaklda voqelanadi. Falsafiy g'oyalar badiiyat – obrazlar, badiiy ifoda uslubi, turli badiiy unsurlar vositasida jonlanadi. Yangicha – qalbga yaqin jilolarda, ta'bir joiz bo'lsa, qayta tug'iladi. Intellektual romanda falsafiy mulohazalar qahramon tilidan zerikarli, monoton tarzda bayon qilinmaydi. Faylasuf qahramonning "og'ziga kirib olmaydi". Falsafa badiiy to'qimaga singib ketadi, nihoyatda qiziqarli syujetga singdiriladi. Roman modifikatsiyasiga oid doktorlik tadqiqoti muallifi V. Pesterov intellektual roman asoschisi Tomas Mann romanlarida "fikir va obraz"ning sintezlashuvi haqida fikr bildiradi¹².

Adabiyotshunoslikda "falsafiy roman" atamasi ham bor. Bu atama ba'zan "intellektual roman" atamasi bilan sinonim tarzda yoki qo'shaloq qilib "falsafiy-intellektual roman" yoki "intellektual-falsafiy roman" ko'rinishida ham ishlatiladi. Biz yuqorida intellektual romanda falsafa va badiiy adabiyot sintezlashishini aytib o'tdik. Ammo bu falsafiy roman va intellektual roman bir hodisadir, deyishga asos bermaydi. Turli nazariy adabiyotlar, adabiyotshunoslik lug'atlarida intellektual romanga tavsif berilmagani holda, "falsafiy roman" atamasi kiritilgani va tavsiflanganini ko'ramiz. Iste'molda bundan tashqari falsafiy roman termini

¹⁰ Mamiraliyev Q. Istiqloq davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi: Filol. Fan. bo'yicha fal. (PhD) dok. ... diss. – Toshkent, 2024. – B. 32.

¹¹ Qarang: O'sha manba. – B. 32-38.

¹² Бу ҳақда: Пестеров В. Модификация романной формы в прозе Запада второй половины XX столетия: Способы художественного синтезирования: Дисс... докт. филол. наук. – Волгоград, 1999. – С. 14.

ham mavjud va bu termin intellektual roman terminiga ko‘ra faolroqdir. Falsafiy roman deyarli barcha nazariy adabiyotlar, lug‘atlarda tavsiflangan.

Bobning ikkinchi fasli *“Tomas Mann va XX asr yozuvchilari ijodida intellektual-falsafiy roman taraqqiyoti”* deb nomlanadi. “Intellektual roman” atamasining o‘zi ilk bor nemis yozuvchisi Tomas Mann tomonidan iste‘molga kiritilgan. 1924-yilda adibning “Sehrlig‘ tog‘” romani e‘lon qilinadi. Shundan so‘ng u “Shpengler ta‘limoti haqida” nomli maqolasida ilk bor intellektual roman atamasini qo‘llaydi. Dastlab, “Shpengler kim?” degan savolga javob topsak. “Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya” ma‘lumotlariga ko‘ra, Osvald Shpengler – nemis faylasufi, publitsistik, ijtimoiyotchi va tarixchi ekanligi qayd etiladi. 1880-yilda Blankenburgda tug‘ilib, 1936-yilda Myunxenda vafot etgan.

Shpenglerning madaniyatlar tarixchisi sifatidagi ta‘limotining mohiyati shundan iboratki, har qanday madaniyat – bu tirik organizmdir, deb hisoblaydi u. Madaniyat ham hamma tirik mavjudotlarga o‘xshab tug‘iladi, taraqqiy etadi va o‘limga mahkumdir. Har qanday madaniyat ertami-kechmi o‘z umrini tugatadi. Shpengler har bir xalqning o‘z ruhi, ya‘ni hech kimnikiga o‘xshamagan mentaliteti, psixologik va xulqiy o‘ziga xosliklari borki, shu kabilar bilan bir xalq vakili ikkinchisidan ajralib turadi, deb hisoblaydi. Tomas Mannning “Sehrlig‘ tog‘” (*“Der Zauberberg”*) romani ilk intellektual romanlardan biri hisoblanadi. Roman ustidagi ish 1912-yilda boshlanadi, ammo I jahon urushi tufayli to‘xtab qoladi. Asarning yozilishiga adibning xotini Katyaning Shveysariyadagi Davos shahri yaqinida joylashgan tog‘ sanatoriyasida davolanishi turtki bo‘ladi. Tomas Mann sanatoriyada uch hafta bo‘ladi. Sanatoriya hayoti, xastalarning hayoti, ruhiyati bilan tanishadi. Bundan tashqari, Katya ham eriga yozgan xatlarida sanatoriya, kasallar, u yerdagi voqealar, odamlar psixologiyasi haqida yozadi. Adibning shu mavzuda yozilgan “Tristan” (1903) hikoyasi ham bor. U dastlab sanatoriyadagi kasallar hayotini tasvirlovchi qissa yozmoqchi bo‘ladi. Lekin asar keyinchalik ikki katta qismdan iborat romanga aylanib ketadi.

“Sehrlig‘ tog‘” romani qahramonlarining real hayot bilan aloqalari zaif, ahyon-ahyonda keladigan va yuboriladigan xat, telegrammalar shaklidagina amalga oshadi. Shu tariqa bu yerda hayot va o‘lim o‘z ma‘nosini yo‘qotgandek. Odamlararo munosabatlar, ularning olam va odam haqidagi o‘ylari, turli falsafiy qarashlar muhim ahamiyat kasb etgandek.

Shu nuqtayi nazardan Tomas Mann turli falsafiy g‘oyalar tarafdori bo‘lgan qahramonlari vositasida o‘z davrining keng yoyilgan falsafiy g‘oyalari, ilm-u fan yutuqlari, yangilik va kashfiyotlarini bir joyga to‘playdi. Falsafiylik va intellektuallik ko‘proq qahramonlari siyomosida tafakkur qilayotgan, turli-tuman nuqtayi nazarlarni bir joyga to‘plab, obyektiv ravishda ularning yaxshi-yomon tomonlari bilan kitobxonlarni tanishtirishga bel bog‘lagan muallifga tegishlidir. Intellektual romanning bosh xususiyatlaridan biri ham shudir. “Sehrlig‘ tog‘” – jahon adabiyotidagi ilk intellektual roman sifatida juda katta ahamiyatga ega.

Tomas Mann ilk intellektual roman muallifi va keyingi asarlarida ham shu tamoyilni davom ettirdi. U 1947-yilda “Doktor Faustus” romanini yozadi. Roman g‘arbda keng tarqalgan syujet asosida yozilgan. Bu syujet o‘z ruhini shaytonga

sotish (ayirboshlash) voqeasini o'z ichiga oladi. Bu syujet asosida yaratilgan eng mashhur asar Gyotening "Faust" tragediyasidir. Roman bosh qahramoni Adrian Leverkyn ismli kompozitor. Syujet uning hayoti voqealarini o'z ichiga oladi. Kompozitorning do'sti bo'lmish roviy-hikoyachi Serenus Seytblom dastlab uning oilasi haqida gapiradi. Ota Leverkyn alkimyo bilan qiziqadi. Ma'lumki, alkimyogarlarning tuproqni oltinga aylantirish g'oyasi bilan mashhur. Shu tariqa roman voqeligi darhol afsonaviy tus oladi, mif va real voqelik paralleli yuzaga keladi.

Leverkyn oilada odob-axloq va oliyjanob g'oyalar, ezgu an'analar ruhida o'sadi. U ilmga qiziqadi, gimnaziya o'qiydi. O'qish mahali shaharda amakisnikida yashaydi. Musiqachi yoshligidan yolg'izlikni sevadi, mag'rur va g'alati fe'l-atvor egasi edi. Amakisi musiqa asboblari sotar, Adrian ham 14 yoshidan musiqaga qiziqib qoladi. Amakisining maslahati bilan Vendel Krechmer ismli musiqachidan saboq o'la boshlaydi. Adrian gimnaziya tugatgach, universitetda diniy yo'nalishda tahsil oladi. Universitetda din psixologiyasi bo'yicha professor Shlepfus inson hayotida shaytonlar va sehr-joduning ahamiyati borligi haqida ma'ruzalar o'qiydi. Adrianning mazkur professor bilan aloqalari mustahkamlanadi. Professor Leypsig shahriga ishga o'tadi, Adrian ham u bilan ketadi. Adrian musiqa bilan shug'ullanadi, dinni o'rganib undan hafsalasi pir bo'ladi, falsafa bilan qiziqadi. Shu tariqa asarga intellektual roman belgilari kirib keladi, ya'ni adib turli sohalar, turli g'oyalar va nuqtayi nazarlarni romanga olib kiradi.

"O'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy roman tipining shakllanishi" deb nomlangan ikkinchi bobning *"O'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy romanchilik genezisi va shakllanishi"* mavzusidagi birinchi faslida intellektual roman ko'rinishi jahon adabiyotida XX asrning ilk choragida maydonga kelganligi, bunday asarlar o'zbek milliy adabiyotida nisbatan kechroq, deyarli mustaqillik davrida yozila boshlanganligi borasida nazariy qarashlar ilgari suriladi. O'zbek intellektual-falsafiy romani ham shunga o'xshash tarixiy bir davrda maydonga keldi. Shavkat Rahmon o'zining "nihoyat shoirdan ko'ra zobitman" deb e'lon qilishida aynan o'sha Tomas Mann aytgan so'zlarning ma'nosi ifodasini topadi. "O'zingning ijtimoiy vijdoningni unutib ijtimoiy tuzilma haqida o'ylashga tupurib qo'yib va "sof san'at"ga ko'milgan holda estet bo'lish mumkin emas"¹³. XX asrning so'nggi yillarida o'zbek adiblari uchun ham "intellektual vaziyat" yuzaga kelgan, bu intellektual-falsafiy romanlar yozishni taqozo qilar edi.

O'zbek adabiyotida intellektual-falsafiy romanlarning maydonga kelishi xususida so'z borar ekan, uning genezisi ancha chuqur ekanini ham aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Bu borada Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qissalarini eslashga to'g'ri keladi. Qomusiy olim va faylasuf bo'lgan ibn Sino, asosan, ilmiy asarlar yaratgan, shu bilan birga uning she'riy va nazmiy merosi ham bor. U "Hayy ibn Yaqzon" ("Uyg'oq o'g'li tirik"), "Risalat ut-tayr" ("Qush risolasi"), "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi" singari falsafiy qissalarning ham muallifidir. "Salomon va Ibsol" qissasi syujeti jihatidan Yusuf (a.s.) rivoyatini eslatadi. Qissa "... hajm jihatidan kichik bo'lishiga qaramay, o'z oldiga katta tarbiyaviy masalalarni

¹³ Манн Т. Об учении Шпенглера // <https://russianway.rhga.ru/upload/main/014sh.pdf>

qo'yadi. Qissada sabot va matonatli, chidamli va intizomli, sofdil va ajoyib bir yigit Ibsol obrazini hamda har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, o'zining iflos maqsadini amalga oshirishga tirishadigan, bu yo'lda hech narsadan toymaydigan salbiy bir ayol obrazini beradi. Ibn Sinoning bu asari bilan ma'lum bir tabaqa kishilarini tarbiyalashga uringanligi sezilib turibdi. Salomonning xotini obrazi feodal sarob muhitiga xarakterli bo'lgan tiplardan biri ekanligi ana shundan dalolat berib turibdi"¹⁴. Ibn Sino "Yusuf qissasi"ni ham yozgan. Mutaxassislarga ko'ra, bu Yusuf (a.s.) haqidagi ilk badiiy asardir¹⁵. "Ibn Sino Yusuf haqidagi qissasida Ibsol obrazidagi mavjud oliyjanob fazilatlarini Yusuf obrazida yanada takomillashtirib, o'z ideallarini yanada chuqurroq va ravshanroq ko'rsatib beriladi"¹⁶.

Mutafakkirning qolgan ikki qissasi bevosita ramziy-falsafiy, ayni choqda syujetli asarlardir. Aynan mana shu ikki asar tuzulishi, uslubi, poetikasi va mazmun-mohiyati bilan intellektual roman namunalariga yaqin turadi. "Risalat ut-tayr" bevosita syujet voqealaridan emas, balki do'stlik haqidagi falsafiy mulohazalar bilan boshlanadi, bu ham uning intellektual roman shakliga yaqinligidan dalolat beradi. Syujetni don, ya'ni nafs temasida tuzoqqa tushgan va o'zi kabi qushlar bilan birga najot izlagan qush hikoyasi tashkil qiladi. Qissa boshdan-oxir ramziy mazmunga ega bo'lib, Semurg' haqidagi sharqona mifga asoslangan. Atoqli olim A. Irisov uni Ibn Sinoning avtobiografiyasi bilan bog'laydi. Ayni vaqtda asar tasavvufiy mazmunga ham ega. Bu asar keyinchalik "Fariduddin Attorga "Mantiq at-tayr", Navoiyga "Lison at-tayr" kabi asarlarini yozishda asosiy turtki bo'lgan, deyish ham mumkin. Chunki dastlab bu sohada Ibn Sino asar yozadi, undan so'ng boshqa bir qancha avtorlar qalam tebratdilar"¹⁷ qabilidagi fikrlar ham qissaning tasavvufiy xarakterini qisman tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, falsafiy-intellektual romanda ijtimoiy-siyosiy voqelikka faol munosabat, uni turli nuqtayi nazarlardan baholash lozimligidan kelib chiqsak, o'sha davrda yakka mafkuraga asoslangan sho'ro sharoitida bu xil asarlarning, ayniqsa, mustamlaka vaziyatida bo'lgan millatlar adabiyotlarida yaratilish ehtimoli yana kamayadi. Milliy badiiy tafakkur hali intellektual-falsafiy roman yaratish darajasiga yetmagan edi, desak, bu aslo o'z adabiyotimizni kamsitish, noxolis baholash deb ham tushunilmasligi kerak. Chunki bizda tafakkurning ham, badiiy tafakkurning ham modellari intellektual romanlar yaratilgan xalqlarnikidan butunlay boshqacha, sof sharqona, endi-endi zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashuv yo'liga kirgan edi u davrlarda. Intellektual romanga muqobil keladigan "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" kabi she'riy romanlarimiz bor edi o'tmishda. Ammo adabiyotimiz shunga o'xshagan asarlarni zamonaviy shaklda yaratishga hali "ko'nikmagan", malakalashmagan edi.

Badiiy nasrga intellektuallikni olib kirgan adiblardan biri Ulug'bek Hamdamdir. Ilk bora bu usulni "Yolg'izlik" qissasida tajribadan o'tkazgan edi. "Yo'l" romani U. Hamdamning boshqa romanlariga o'xshamaydi. Muallifning o'zi

¹⁴ Irisov A. Ibn Sino – ma'rifatparvar adib. – Toshkent, 1962. – B. 19-20.

¹⁵ Irisov A. Ibn Sinoning Salomon va Ibsol qissasi. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 11.

¹⁶ Irisov A. Ibn Sino – ma'rifatparvar adib. – B. 22.

¹⁷ Irisov A. Ibn Sinoning Salomon va Ibsol qissasi. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 14.

unga “falsafiy roman” degan eskartma beradi va Jaloliddin Rumiyning: “Men bir oʻjiz tomchiman, ammo yuragimda ummon sogʻinchi yashaydi” degan soʻzlarini epigraf qilib oladi. Bu tasavvufiy mazmunga ega ibora oʻzligini izlayotgan, Buyuk Yaratuvchiga intilayotgan qahramonning mohiyatiga ishora qiladi.

Roman qahramoni oʻz botinida shunday savolga duch keladi: “Men qayerdan keldimu nega keldim va qayga borayapman?..” Bu savol oʻzbek intellektual-falsafiy romanlaridagi koʻpgina qahramonlarni qiynayotgan savoldir. “Boqiy darbadar”da ham qahramonlar shu savolni oʻrtaga qoʻyadilar, shunga javob topish uchun yoʻl bosadilar. Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” hamda “Aflotun” intellektual-falsafiy romanlarida ham YOʻL motivi markazda turadi, qahramonlar bevosita emas, bilvosita shu savolga javob izlaydilar. XX asrning oxirlaridan boshlab oʻzbek adabiyotida ham toʻlaqonli intellektual falsafiy romanlar yaratildi. Ularning ayrimlari anʼanaviy roman strukturasiga ega boʻlsa, ayrimlari butunlay modernistik shakllarda yaratildi. Dissertatsiya maqsadidan kelib chiqqan holda berilgan umumiy tahlillar ham oʻzbek adabiyotidagi intellektual-falsafiy romanlar haqida muayyan tasavvur hosil qila oladi.

Bobning ikkinchi fasli *“Intellektual-falsafiy roman – tarixiy roman modifikatsiyasi sifatida (“Jinlar bazmi yoxud katta oʻyin”)*” deb nomlanadi. “Jinlar bazmi yoxud katta oʻyin” romani mazkur dissertatsiyada tahlil qilingan va qilinajak romanlardan farq qiladi. Farq shundaki, asar uzoq yillardan buyon xorijda yashayotgan qirgʻizistonlik oʻzbek adibi Abdulhamid Ismoil tomonidan yozilgan.

Abdulhamid Ismoil Qirgʻizistonning Toʻqmoq shahrida tugʻilgan. Hozirda Angliyada yashaydi. U oʻzbek tilida yozadi. Ingliz tiliga birinchi marta 2006-yilda “Temir yoʻl” romani tarjima qilingan (“Railway”). Uning oʻzbek adabiyotiga oid adabiy-ilmiy maqolalari ham bor. Shuningdek, “Shoir va Ben Laden”, “Yerosti yoʻli”, “Oʻlik koʻl” kabi romanlari ham ingliz tiliga tarjima qilingan (“A Poet and Bin-Laden”, “Undeground”, “The Dead Lake”).

Adibning biz tadqiq etayotgan “Jinlar bazmi yoxud katta oʻyin” asari 2016-yilda “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan. Unga “Abdulla Qodiriy haqida ilk roman” degan ikkinchi sarlavha ham qoʻyilgan. Roman ingliz tiliga ham tarjima qilingan (“The Devils’ Dance”), tarjimon – Donald Reyfild matn ichidagi sheʼrlar esa Jon Farndon tomonidan inglizchalashtirilgan. Roman Londonda Tilfed Axis Press nashriyoti tomonidan chop etilgan va Londonda kitob taqdimoti oʻtkazilgan. Abdulhamid Ismoil mazkur asari uchun Ovrupo tiklanish va taraqqiyot banking jahondagi 40 ta mamlakat yozuvchilariga beriladigan xalqaro adabiy mukofoti bilan taqdirlangan. “Jinlar bazmi yoxud katta oʻyin” turli adabiyotshunoslarning turli xil fikr-mulohazalariga sabab boʻlganidan qatʼi nazar, ilmiy tadqiq etilishi lozim boʻlgan milliy adabiyot namunasi. Aslida, haqiqiy sanʼat asarlari hamisha bahs-u munozaralar obyekti boʻlib kelgan. Buning milliy adabiyotimizdagi yorqin misoli benazir Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidir. Murakkab tarixiy davrlar, hamma narsa aralash-quralash boʻlib, oyogʻi osmondan kelib qolgan ijtimoiy-siyosiy muhit, qarashlar keskin farqli lagerlarga ajralgan sharoit tasvirlangan asarlarning bu taxlit davomiy munozaralarga sabab boʻlishi ham tabiiy bir hol deb qaralishi kerak. Roman qahramoni boʻlgan Abdulla Qodiriy goʻyo

Oyxonposhsha vositasida o‘zining mahzun erksizlik qissasini yozadi. Balki A. Ismoil Umarxonning Oyposhshaga uylanishi borasidagi turli-tuman, bir-biriga zid ma’lumotlaru faktlar, manbalardan xabardor bo‘lgani uchun ham bu voqea tasvirini Abdulla Qodiriyning xud-bexud yotgan vaqti bilan bog‘lagandir? Xullas, roman matni intellektual romanga xos ravishda ko‘pqavatli, serqatlam bo‘lgani bois ham turli-tuman talqin va tahlillarga asos beradi, deb hisoblaymiz.

Romanga oid yana bir muhim moment bor. Buni A. Ismoilning o‘zi ta’kidlab ko‘rsatgan. Bu Sharqda, islomda, o‘zbek muhitida ayolning o‘rni masalasi. A. Ismoil oilada, jamiyatda sharq, O‘zbek ayolining roli juda katta, buni hatto maqol va iboralarimizdan ham bilib olishimiz mumkin deb hisoblaydi va shuni romanda ko‘rsatishga harakat qiladi. U shunday deydi: “Romandagi ayollar mavzusiga kelsak – Islomda, Markaziy Osiyoda va o‘zbek oilasida ayolning mavqeyi to‘g‘risida aldamchi tasavvur keng tarqalgan. Men o‘ylaymanki, “Jinlar bazmi yoxud katta o‘yin”da bu anglashilmovchilikni hal etishga da’vat etilgandir. Ayolning madaniyatni, an’analarni va urf-odatlarni asrash va kelgusi avlodga uzatishdagi o‘rni birinchi darajali ahamiyatga egadir. Hayot tarzi va hayotning o‘zi haqidagi barcha narsani biz momolarimiz, onalarimiz, xolalarimiz, opalarimizdan olamiz. Bu mavqeyining mohiyatini ochib beradigan juda ko‘p o‘zbek maqol va matallari mavjud: “Erkaklar jahonni boshqarishi mumkin, ammo erkaklarni ayollar boshqaradi” yoki “Agar erkak bosh bo‘lsa, ayol bo‘yindir, bo‘yin qayoqqa burilsa, bosh o‘sha yonga qaraydi”. Abdulla Qodiriy romanlarini yoki uning do‘sti – Cho‘lponning asarlarini o‘qib ko‘ring, siz o‘zbek oilasida va oila orqali o‘zbek jamiyatida ayolning yengilmas o‘rnini ko‘rasiz”¹⁸. Ingliz tiliga tarjima qilingan, xalqaro mukofotga loyiq ko‘rilgan va dunyo o‘quvchilarining o‘qishi ehtimoli katta bo‘lgan bir roman va uning to‘g‘risida aytilgan bu gaplar milliy qadriyatlarimizni jahonga tanitish, jamiyat va oilada ayolning o‘rnini ko‘rsatish bobida katta ahamiyatga ega.

Yozuvchi yana o‘z asari haqida shunday deydiki, bu ham romanning mavzu-mohiyati, g‘oyalarini muayyan tarixiy davr bilan cheklab qo‘yish to‘g‘ri emasligi, unda ko‘tarilgan masalalar barcha davrlarga tegishli bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi: “Mening romanimda inson tabiati, uning parvozlari va inqirozlari, inson qalbida ilohiy va shaytoniy hislarning o‘zaro harakatlanishi to‘g‘risida va inson tabiatini o‘zgartirish eng mushkul masala ekanligi haqida so‘z boradi”¹⁹. Roman yaxlit holda ham psixoanalitik ramziy parallel asosiga qurilgan. Abdulla Qodiriy – Oyxon. Voqealar rivojlanib borarkan, sho‘ro mamlakati – amir Umarxonning feodal saltanati, ixtiyori tortib olingan Oyxon – Qodiriy va uning safdoshlari, sho‘ro qamog‘i – amirning harami kabi idrok eta boriladi. Xuddi shuning uchun ham ikki tarixiy davr voqealari galma-gal, uzliksiz almashinishda berib boriladi. Quyidagi jadvalda sho‘ro qamoqxonasi xonning harami bilan qiyoslangan.

¹⁸ Абдулхамид Исмоил “Жинлар базми” романи ва бошқа асарлари хақида. Ёзувчи Ҳамид Исмоил ва Зайнаб Муҳаммад Дўст суҳбати // <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-50764553>.

¹⁹ Абдулхамид Исмоил “Жинлар базми” романи ва бошқа асарлари хақида. Ёзувчи Ҳамид Исмоил ва Зайнаб Муҳаммад Дўст суҳбати // <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-50764553>.

Abdulla Qodiriy sho‘ro qamoqxonasidagi holati	Oyxonposhshaning xon haramidagi Holati
<p>Shu payt kalitlar g‘ichiri bilan eshik sharaqlab ochildi-da, yo‘g‘on va malla navkar Gulxaniy o‘rnida devsimon Vinokurov qamoqxonaga kirib kelib: «Ну что, с Новым годом что ли, буржуазно-националистическая крыса, думал зарылся в нору здес? А я тебя тут же за хвост!» – deb “Karnauchidan nima ketdi, puf” – deya, Gulxaniy bilan xayrlashishga ulgurmagan Abdullaning og‘zi-burnini bir qilib, uribu tepib ketdi...</p> <p style="text-align: center;">***</p> <p>Xushi chip-chip qonu og‘ir og‘riq (ta‘kid bizniki – F.K.) bilan o‘ziga qaytgach, bu safar yomon afsuslandi Abdulla. Nega, xom xayollarga berilib, bunga tayyor bo‘lmadi?! Vinokurovning bo‘g‘ziga qo‘lining kuchi yetmasa tishi bilan yopishsa bo‘lardi-ku, otib tashlasin endi shu yerning o‘zidayoq, lekin manovinga o‘xshab xor bo‘lib yotganidan ming karra afzalroq emasmidi?! Endi qaytishga yo‘l yo‘q. Sal kuchini yig‘ib olsin: ko‘rishi bilan tishlab, g‘ajib, bo‘g‘ib, o‘ldiradi u mahluqni. Abdullaning tishlari g‘ijirladi. O‘ldiradi! O‘ldiradi! O‘ldiradi!.. (ta‘kid bizniki – F.K.)</p> <p>Ertalab eshik g‘ichirlashidan seskanib uyg‘ongan Abdulla zehni bilan emas, kechagi alaming kuchi bilan kirib kelganga hamla qilmoqchi ekanligini uyg‘onishi bilanoq tuyib, qo‘llari mushtga tugulgan ediki, qarasa eshikdan anavi beso‘naqayroq o‘zbek askarchasi kirib kelyapti...</p> <p>Askarcha idish-tovoqni taqillatibroq topshirar ekan, bu shovqinga ovozini o‘rab: – Qumloqlivuz, Kalhovuz bo‘yidan. Bzaya xizmat bo‘sa etuvring! – deb pichirladi.</p> <p>Nimani so‘rasa ekan bu yigitchadan? Nima kelar ekan uning qo‘lidan? Pichoq obkelib ber, – desammikan? (ta‘kid bizniki – F.K.) eplolarmikin?..</p> <p>Pichoq so‘rashi kerak qumloqlik yigitchadan²⁰.</p>	<p>Oyxonposhsha go‘shangada yanchilgan talqondek yotar ekan, na dod deyishga kuchi, na yum-yum yig‘lashga yoshi, na o‘zini bo‘g‘ib o‘ldirishga majoli bor edi. Zo‘rlangan qizning adoqsiz kechasi... Zo‘rlagan maxluq esa g‘usl olgani chimildiq ortidan tashqariga chiqib ketgan, unga erishganu, qulagan nafrat qiz ko‘kragini tegirmon toshidek bosgan. Tepindi qiz, timdaladi, tishladi, darranda-chi bundan qaytaga jo‘shib, pishqirib, ko‘piklarini nozik gulbadanga sochdi.</p> <p style="text-align: center;">***</p> <p>Chip-chip qonu og‘ir og‘riqqa (ta‘kid bizniki – F.K.) bulanib yotgan qiz: “Endi kelsa bo‘g‘ziga tishim bilan yopishaman!” (ta‘kid bizniki – F.K.) deb marjondek tishlarini g‘ijirlatib yotibdi. Oyxonposhsha ulovga solinganida navkarlar orasida baland bo‘yli qizg‘ishroq odamni ko‘rgan edi. Ko‘ziga issiq ko‘ringan bu navkar vahshiy hayvonni ham go‘shangagacha ko‘rib kelgan edi. O‘ratepada atasining qo‘lida o‘qigan ko‘hlik Muhammad Sharif bo‘lmasin tag‘in! O‘zini “Nola” atagan otasi uni erkalab “Gulxaniy” deb atardi... Agarda o‘sha bo‘lsa, yalinib, erkanib, xanjar so‘rasammikan?... (ta‘kid bizniki – F.K.)²¹</p>

Psixoanalizga ko‘ra, bostirilgan shahvoniy xohish-istaklar vaqt o‘tishi bilan mutlaqo boshqa shakllarda (masalan, ijod yoki bunyodkorlik ishlari, agressiya yoki vayronkorlik, telbalik) voqelanadi. Tushlarda ham xuddi boshqa ramzlarda namoyon bo‘ladi. A. Ismoil esa teskari yo‘ldan boradi. Millat oydinlarining erk va hurriyat uchun kurash yo‘lidagi achchiq fojiasini uch hukmdorning zavjasi bo‘lgan Oyxon-poshsha voqeasiga baqamti qo‘yadi. “Nega millat oydinlari ayol

²⁰ Исmoil А. Жинлар базми ёхуд катта ўйин. Абдулла Қодирий ҳақидаги илк роман. www.ziyouz.com. – Б. 49-53.

²¹ Исmoil А. Жинлар базми ёхуд катта ўйин. Абдулла Қодирий ҳақидаги илк роман.. www.ziyouz.com. – Б. 53.

ramzi orqali berildi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha, sho‘ro davridagi millat ziyolisining haq-huquqsizligi, kuchsiz va tayanchsizligi, erk istagida yongan-o‘rtangan yuragi feodal tuzumdagi ayolning haq-huquqsizligi, kuchsiz va tayanchsizligi, erk istagida yongan-o‘rtangan yuragiga to‘la muqobil edi. Tarix bir holatni ikki davrda, ikki shaklda takrorlagan edi go‘yo.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Omon Muxtor ijodida intellektual-falsafiy roman tajribalari”** tadqiq qilingan. Bobning ilk fasli *“Omon Muxtor romanlarida uydirma makon va intellektual-falsafiy roman belgilari”* deb nomlangan. Omon Muxtor o‘z romanlarida ko‘plab tarixiy shaxslar siymosini yaratgan. Uning *“Ayollar mamlakati va saltanati”* romanida shoira va davlat arbobi Nodirabegim, *“Aflotun”* romanida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Aflotun, Suqrot, Kriton obrazlari bor. *“Tepalikdagi xaroba”*da ota-bobolari asli Samarqand-u Buxorodan bo‘lgan, ammo o‘zi urdu shoiri sifatida shuhrat qozongan, fors tilida ijod qilgan Mirza G‘olibning adashi bo‘lgan Mirza G‘olib – bosh qahramon. Shuningdek, turkiy shoirlar Lutfiy, Boborahim Mashrab, ingliz shoiri Jorj Gordon Bayron, somoniylardan Abul Hasan Nasr kabi tarixiy shaxslarga duch kelamiz. Bu tarixiy shaxslar kitobxondan ham intellektuallikni, ya‘ni bu odamlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishni talab qiladi. Avval-boshlab esa muallifning o‘zi bu siymolarning tarixda tutgan o‘rni, faoliyati va ruhiyatini chuqur o‘rgangan, bilgan va ularning obrazini mahorat bilan turli syujetlarga olib kirgan. Ayni vaqtda romanda tarixiy shaxslar haqida turli darajalarda ma‘lumotlar ham kiritilgan. Masalan, Abul Hasan Nasr haqida yozuvchi batafsil ma‘lumot bersa, Lutfiy haqida xayoliy hikoya to‘qiydi-yu, biografik ayrim ma‘lumotlardan foydalandi.

Tahlilga kirishmasdan turib, kuzatishlarimizga asoslangan holda oldindan shunday deyish mumkin: Omon Muxtorning biz tadqiq qilgan, tarixga bag‘ishlangan ikki romani shuning uchun ham intellektual-falsafiy romanki, ularda yozuvchi tarixning o‘lik va o‘zgarmasdek faktlarini jonli bahs-munozara maydoniga tortgan. Sof badiiy romanlarda (masalan, Oybekning *“Navoiy”*si) yozuvchi o‘tmish voqealarini tarix manbalariga asoslanib badiiy voqelikka aylantiradi. Ma‘lum fakt va ma‘lumotlarni maroqli bir hikoyaga aylantiradi. Omon Muxtor esa tarixning qotib qolgan faktlarini his qilish, tafsilotlar, tuyg‘ular, munosabat, shubha bilan to‘ldirish mumkinligini ko‘rsatgan. Adib romanlarida an‘anaviy tarixiy romanga xos voqea tasviridan, izchillikdan chekiniladi. Yozuvchi bu siymolarni mutlaqo subyektiv idrok etishga urinadi. Tarix bag‘ridagi manbalarda bayon qilinmagan voqea-hodisalar, insoniy iztirob, shodlik va qayg‘ularni tasavvur kuchi bilan topishga urinadi. Badiiy matn qonuniyatlaridan chekinib, uzoq-uzoq falsafiy mulohaza yuritadi. Eng muhimi, kitobxon tarixiy shaxslarni ularni o‘z tebrasidagi oddiy odamlardan biridek qabul qiladi. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarining o‘ziga xos syujet poetikasi haqida qator tadqiqotlar yaratgan adabiyotshunos D. To‘rayev O. Muxtorning *“Ming bir qiyofa”*, *“Tepalikdagi xaroba”* va *“Ffu”* romanlaridagi gumanistik pafos, falsafiy teranlik, romantik ruh, ilohiy tasvirlash sirlari, syujetdagi o‘tkirlikning alohida ta‘kidlaydi. Muallifning birgina *“Tepalikdagi xaroba”* romani xususidagi e‘tibor qilaylik. U yozadi: *“Yozuvchi “Tepalikdagi xaroba” romanida tamomila romantizm ruhida ijod qildi. Anglash*

qiyin, ammo chuqur ma'nolarni ifodalovchi, sir-sinoatlarga to'lib-toshgan bu asarni tanqidchiligimiz hozircha yetarli baholay olgan emas. Holbuki, bu ajoyib roman haqida har qancha yozilsa, bahs-munozara qilinsa arziydi.

Romanni o'qiganimizda ijobiy ma'noda boshimiz aylanib ketadi – asarda fantaziya-xayolot, sirli va tushunishi qiyin holatlar g'ij-g'ij. Asar syujetini harakatlantirgan ijodiy maqsadni ham tushunish murakkab. Ammo har bir kitobxon bu asardan o'ziga turli ma'nolarni kashf etadi”²².

Darhaqiqat, “Tepalikdagi xaroba” shuning uchun ham intellektual-falsafiy romanki, unda an'anaviy tarixiy romandan farqli ravishda, ilmiy-tarixiy essega, adabiy-tanqidiy portretga xos uslubda tarixiy ma'lumotlar sahifa-sahifa keltirilaveradi. Bunda badiiy syujetdan lirik chekinish qilinadi. Tomas Mannning “Sehrlig tog'” romanida psixoanaliz faniga oid ma'lumotlar sihatgohdagi maxsus ma'ruzalar shaklida batafsil berilgani kabi, Omon Muxtor ham o'z qahramoni – tarixchi olim Mirza G'olibning Abul Hasan Nasr haqidagi o'z maqolasini eslash fonida “amir haqidagi hikoyat bunday edi” deydi-da, 9 sahifada tarixiy-ilmiy matnni beradi. Abul Hasan Nasr ibn Ahmad haqida batafsil ma'lumot keltiradi. Ayni vaqtda, badiiy asar bo'lgani uchun ham ayrim subyektiv mushohadalar aralashadi. Ammo baribir u – *tasvirga asoslangan badiiy matn emas, bayonga asoslangan ilmiy matndir*ki (ta'kid bizniki – F.K.), bu romanning darajasini aslo pasaytirmaydi, balki asarni haqli va asosli ravishda intellektual-falsafiy roman ko'rinishiga daxldor etadi.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, intellektual-falsafiy roman belgilari “Tepalikdagi xaroba”da nihoyatda kuchli. Uni to'laqonli intellektual-falsafiy roman deb oldik va mazkur dissertatsiyada shu roman tadqiqga keng o'rin ajratdik. “Ming bir qiyofa”da intellektual-falsafiy romanga xos bo'lgan mifopoetika kuchli, uydirma makon mavjud, ramziylik-serqatlamlik bor, ammo unda falsafiy, fanniy mulohazalarga keng o'rin berilmagan. “Ko'zgu oldidagi odam” esa syujet, struktur tuzilish, xarakterlar, mazmun-mohiyatiga ko'ra sof badiiy nasr namunasidir. Demak, bu uchala roman yagona uslub-yo'nalishda yozilmagan. Ular alohida-alohida romanlar sifatida yozilganu, keyin ayrim umumiyliklariga ko'ra, adibning o'z so'zlaricha aytsak, “yagona konsepsiyaga ko'ra” trilogiya deb belgilangan. Ularda jahon adabiyotidagi ko'pgina trilogiyalarga xos bo'lgan syujet davomiyligi, personajlarning romandan-romanga ko'chishi kabi shakliy umumiyat ham yo'q.

Bobning ikkinchi fasli “*Omon Muxtorning intellektual-falsafiy romanlarida intertekstuallik*” deb nomlanadi. Intertekstuallik intellektual-falsafiy romanning muhim belgilaridan biridir. Milliy adabiyotshunoslikda hali to'la tavsiflanmagani uchun dastlab mazkur tushunchaning nazariy tavsiflarini ko'rib o'tishimiz lozim. Atoqli adabiyotshunos olim M. Baxtin “So'z san'atida mazmun, material va shakl muammosi” tadqiqotida yozuvchi o'zidan oldingi va o'ziga zamondosh adabiyot bilan ham bog'liq bo'ladi, ijodkor o'shalar bilan doimiy dialogda bo'ladi, deydi. Keyinroq yozilgan “Dostoyevskiy ijodiga oid” nomli tadqiqotida mantlararo aloqa, uning mazmuni va mexanizmini batafsil yoritadi; “g'ayri so'z” («чужое слово»)

²² Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – Б. 28-29.

atamasini qo‘llaydi. “G‘ayri so‘z”ni yozuvchi ma‘lum bir aniq maqsad bilan qo‘llaydi va unga yangi ma‘no yuklaydi deya ta‘kidlaydi. Shu tariqa bir so‘zda ikki ma‘no yo‘nalishi, ikki ovoz jo bo‘ladi²³.

Intertekstuallik faqat zamonaviy adabiyotning belgisi bo‘lmay, u so‘z san‘ati paydo bo‘lganidan buyon mavjud. Intertekstuallikning alohida ko‘rinishlari turli nomlar bilan atalgan, stilistik figuralar, badiiy-tasvir vositalari doirasida qaralgan. Masalan, sitata antik davrdan buyon mavjud. Talmeh – biror nom, tarixiy voqeaga ishora qilish. Asarga ishora qilish (allyuziya kabi) ham azaldan nafaqat Sharq, jahon adabiyotida qo‘llab kelingan. Faqat strukturalist olimlarning izlanishlari natijasida bu turdagi hodisalar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib umumlashtirildi, bir maxrajga birlashtirildi va ilmiy tadqiq etila boshladi. Intertekstuallikni ilmiy o‘rgangan turli tadqiqotchilar ham buni e‘tirof etganlar²⁴.

Intertekstuallik masalasi o‘zbek adabiyotshunoslarini ham befarq qoldirgani yo‘q. Tadqiqotchi T. Masharipova bu haqda shunday yozadi: “Postmodernchilar o‘z g‘oyalarini qanday asoslashadi? Bu maktabga mansub bir qator vakillarning qarashlari quyidagi iqtibosda yaqqol ifoda topgan. Baynalmatniylik konsepsiyasi M. Fuko tomonidan ilgari surilgan “subyektning nazariy o‘limi” g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqlik, buni Rolan Bart “muallif (ya‘ni yozuvch)ning o‘limi”, shu bilan birga, turli ayon va noayon iqtiboslar ichida aralashib ketgan individual matnning ham “o‘limi” deb atagan. L. Perron-Muazes esa ushbu muammoni boshqalarga qaraganda ravshanroq ifodalab, mutolaa jarayonida uchala narsa: muallif, matn va o‘quvchi yagona narsa – “xat o‘yini uchun bepoyon maydon”ga aylanadi, deydi... Rolan Bart “Muallifning o‘limi”ga esa yanada ko‘proq e‘tibor qaratadi: “Muallifning o‘limi” – postmodernistik matnshunoslikning paradigmal figurasi bo‘lib, unda matn ma‘no anglatish jarayoni uchun kifoya, degan g‘oyani ifoda etadi”²⁵.

Omon Muxtor romanlari ham an‘anaviy romanlardan tubdan farq qiladi. Ularda modernizm va postmodernizm elementlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bizning adabiyotimizda modernizm va postmodernizm davri alohida ajralib turmaydi. Adabiyotshunosligimizda ham o‘zaro davomiy, ammo farqli jihatlariga ega bu ikki hodisa o‘rtasiga hozircha aniq chegara qo‘yilgan emas. Omon Muxtorning biz to‘laqonli intellektual-falsafiy roman sifatida tahlil etilayotgan romanlari tarixiy voqealarni o‘z ichiga olgani, unda tarixiy shaxslar ishtirok etgani uchun allyuziyalarga nihoyatda boy. Biz ulardan ayrimlarini tahlil qilish orqali allyuziyaning intellektual-falsafiy romandagi ahamiyatini va yozuvchi mahoratini ko‘rsatishga harakat qildik. “Aflotun”da roman muallifi ijtimoiy-siyosiy hayotga

²³ Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979. – С. 423; Бахтин М. Проблема содержания, материала и формы в словесном художественном творчестве // В кн.: «Вопросы литературы и эстетики». – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 6-72; Бахтин М. Собрание сочинений. – Том 2. Проблемы творчества Достоевского. Статьи о Толстом. Записи курса лекций по истории русской литературы. – Москва: Русские словари, 2000. – С. 5-213.

²⁴ Еременко Е. Интертекстуальность, интертекст и основные интертекстуальные формы в литературе // «Уральский филологический вестник», 2012. – № 6. – С. 130.

²⁵ Masharipova T. Farb nazariy manbalariida “Muallifning o‘limi” konsepsiyasi // Jahon adabiyoti jurnali, 2015 yil, 11-son.

oid faktlarga ham ishora qiladi. Masalan, Ruxsora Usmonni Raufni topmaganda ayblaydi:

“– Yer osti bo‘lmasa, Yer ustidan qidirmaysizmi?!”

– 50 yil uning hatto nomini tilga olish man qilingan edi! Gapirsang, boshing ketardi. Hozir ham uni deb birov jonini bermaydi. Olomon uchun bu gaplar bir pul! Yo‘qolgan shunchaki qo‘lyozmalar topilmayotgani-da, Raufni topib bo‘lar ekanmi?! – ozor chekib og‘rinib so‘zlandi Usmon”²⁶. Bu yerda hammaga bo‘lmasa-da, ko‘pchilikka, ayniqsa, intellektual o‘quvchiga juda yaxshi ma‘lum fakt – jadidlarning sho‘ro davrida qatag‘on qilingani, milliy madaniyat sahifalaridan nomlari ham, asarlari ham, g‘oyalari ham yulib tashlangani haqida so‘z bormoqda. Ammo yozuvchi faqat o‘tmishdagi qatag‘onni qahramonlar tilidan qayd etish bilan cheklanmaydi. Yozuvchi ziyoli shaxs, tarixchi olim bo‘lgan qahramoni Usmon tilidan qatag‘on hanuz ham zimdan davom etayotgani, olomonning befarqligi, ulug‘ ma‘naviy qadriyat bo‘lgan jadidchilik asarlarining mohiyatini ham, qimmatini ham anglamaslik ikkinchi qatag‘on ekaniga ishora qiladi.

“Tepalikdagi xaroba” romanida ham yozuvchi allyuziyadan unumli foydalanadi. Notanish yerlarda natijasiz daydib yurgan Mirza G‘olib parda ortida uchta jasadni ko‘rib qoladi. Ularning biri Lutfiy, biri Mashrab, biri Bayronning jasadlari edi. Ko‘rganlaridan nihoyatda taajjublangan, dunyoning uch yerida bo‘lishi kerak bo‘lgan jasadlarning bir joyda paydo bo‘lib qolishini aqliga sig‘dirolmagan Mirza G‘olibning xayoliga turli rivoyatlar keladi. Ularning biriga ko‘ra, Mashrabni tuproqqa topshirganlarining yetti kun o‘tib, to‘qqiz qalandar Balxga keladi. Balx vaziri Mashrab otlig‘ qaladarning shahid bo‘lgani haqida gapiradi. Shunda qalandarlar Mashrabni ko‘rganlarini, shoir kafanini bo‘yniga ilib, itini ergashtirib Makkaga ketayotganini aytishadi. Borib qarasalar, rostdan ham lahadning bir tarafidan tashqariga chiqib ketish yo‘li ochilgan bo‘lib, go‘r bo‘m-bo‘sh ekan. Mirza G‘olib ikkinchi jasad – Bayron haqida ham shunday rivoyat borligini eslaydi. Unga ko‘ra, Bayron Yunonistonda bezgak tutib yotar ekan, shoirni ayrim odamlar London ko‘chalarida bemalol aylanib yurgan holda ko‘radilar. Bu yerda Omon Muxtor hammaga ma‘lum bir faktga ishora etyapti: Bayron Yunonistonda vafot etadi, jasadining qoldiqlarini esa Londonga keltirib ko‘madilar.

Omon Muxtor romanlarida intertekstuallik kuchli intellektual-falsafiy manzara yaratgan, serqatlamlikni yuzaga keltirgan. Romanlar xuddi rang-barang chiroyli naqshlar hosil qilayotgan mozaika shaklini olgan. Ayni vaqtda bu muallifning o‘z qalami zaifligini bildirmaydi, albatta. Yozuvchi san‘at qonuniyatlaridan chetga chiqmagan. Aksincha, ayni shu qonuniyatlar doirasida mutlaqo original, ta’sirdor va chuqur falsafiy asarlar yaratgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Isajon Sulton intellektual romanlarida zamonaviy taraqqiyot yutuqlari va falsafa uyg‘unligi”** mavzusida bo‘lib, uning birinchi fasli *“Genetik” – fanniy-badiiy asar sifatida* deb nomlanadi. Iste’dodli adib Isajon Sulton o‘zbek adabiyotida intellektual roman taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib kelayotgan adiblardan. U o‘z romanlarida mifopoetikadan unumli

²⁶ Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 36.

foydalanadi, zamonaviy fan yutuqlarini katta mahorat bilan badiiy matnga uyg'unlashtiradi, ayni choqda bugungi dunyo, insoniyat taqdiri va taraqqiyot muammolari borasida badiiy shaklda falsafiy mushohada yuritadi. Adib uslubida falsafiylik va badiiylik nihoyatda yuksak darajada uyg'unlashib ketgan.

“Genetik” romani 2016-yilda e’lon qilindi. Asarga o‘zbekistonlik iste’dodli olim, Butunjahon Fanlar akademiyasi a’zosi, O‘zbekiston FA akademigi, biologiya fanlari doktori Ibrohimjon Abdurahmonovning faoliyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari asos qilib olingan. I. Sulton bundan oldin ham “Boqiy darbadar” romaniga genetikani mavzu o‘laroq tanlagan ediki, bu haqda olim va adibning suhbatida eslatib o‘tiladi²⁷. “Genetik” romani esa to‘la shu muammoga bag‘ishlanadi. Adib bizning nihoyatda qadim bir xalq ekanimiz, qonimizda ulug‘ bobokalonlarimizning qoni oqishi bilan birga genimizda noyob iste’dod “kod”lari yashirib yotganini, endigi vazifa o‘sha kodlarni uyg‘otish ekani-yu, mustaqillik ularni uyg‘otish uchun maydon, asos bo‘lganini faylasufona idrok etadi, ijodkorona badiiy talqin qiladi. Adibning siyomosida faylasuf va so‘z san’atkori omuxtalashib ketgan. “Genetik” aynan ilm-u fanning turli sohalariga oid yutuqlar badiiy talqin etilgani bilan intellektual-falsafiy romanning o‘ziga xos bir namunasidir. Asalari bilan bog‘liq fikrimizdan uzoqlashmay turib, bu obrazning inson xotirasiga oid psixologik ilmlar bilan to‘yintirilganini ta’kidlamoqchimiz. Isajon Sulton asar avvalida bir necha o‘rinda asal, asalari haqida ilmiy, xalqona fikr-mulohazalarni keltiradi. Sal o‘tib esa bolari bosh qahramonga parallel qo‘yiladi, asalarning kutilmagan bir jihati ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi – bolaligini xotirlayotgan genetik olim o‘zini o‘sha mo‘jaz jonzotga o‘xshatadi: “O‘zimni mana shu manzaralar ichida uchib yurgan bol arisiday tasavvur qilaman, qay manzaraga yaqinlashsam, o‘sha kattalashib, mayda-chuydalarigacha namoyon bo‘ladi”²⁸.

Isajon Sulton zamonaviy psixologiyaning yutuqlaridan kelib chiqqan holda nihoyatda kutilmagan psixologik holat-hodisalarni ham qalamga oladi. Asar boshida genetik olimning bolaligi, yoshligi haqida hikoya qilinadi. Olim o‘sha mahallarda uzoqdan kelgan qarindoshlarini, ular bilan birga kelgan qizchani o‘zgacha mehr bilan xotirlaydi. Shirin xotiralar tasviridan bu – bo‘lajak olimning ilk muhabbati, hali hech bir g‘ubor qo‘nmagan toza, ammo “tug‘ilganu, shu on bo‘g‘ilgan” muhabbati ekani anglashiladi. Qizig‘i, hikoyachi bu qizni atigi bir marta ko‘rgan xolos, shu bo‘yi hayotda uchratmaganu, u shirin xotiralarda yashab qolgan. Genetik olim o‘sha xotiralarni eslar ekan, g‘alati bir holni payqab qoladi: “U mahallar atlas burmali ko‘ylaklar urf bo‘lgan, tus qora sochi uzun edi... Asalari to‘dasini ko‘rsatganim, uyadan oqib tushgan bolni berganim, tiliga tekizib ko‘rib, “Rosa shirin ekan”, deb minnatdor qaragani ham esimda.

Ongim u manzarani kuchaytirib, ranglarini yorqinlashtirib o‘ziga jo etgan. Ko‘rilgan-bilingan hodisalarning tasavvurda o‘zgarib jonlanishidan xabar topganimdan keyin shunga diqqat qiladigan bo‘ldim, bilsam, aynan men ko‘rishni

²⁷ Ақл ва юрак муштарақ бўлса... Ёзувчи ва олим мулоқоти. Н. Чориев ёзиб олган // “Ёшлик” журнали, 2017 йил, 5-сон.

²⁸ Исажон Султон. Генетика. – Тошкент: Янги аср адабиёти, 2016. – Б. 30.

istagan shaklda jonlantirar ekan”²⁹. Odatda, badiiy asar matniga payvandlangan rivoyat yoki afsona, mif muallifning biror nuqtayi nazarini tasdiqlash yoki inkor qilish uchun kiritiladi. Matn ostida muallifning o’sha mifga (asotir, rivoyat, matal yoki afsonaga) ishonchi yotadi. Ya’ni, yozuvchi uni to’g’ri deb hisoblaydi, xalq donishmandligi, dahosining namunasi deb biladi, o’quvchining ishonchini mustahkamlash uchun o’shalarga murojaat qiladi. Ammo mazkur epizodda bo’lajak olim “Matallarning ko’pida xotinlar nodon bo’lib tasvirlanishiga aqlim shoshadi. Tashqariga chiqqanimda ularga qiziqsinib qarayman, sirayam nodonga o’xshashmaydi”³⁰, deydi. Kiritma matndan bu taxlit foydalanish ham Isajon Sultonning “ixtirosi” desak bo’ladi.

Yuqoridagi jumla yo’l-yo’lakay kabi o’qilib ketadi. Ammo uning chuqur mazmunga ega ekani yozuvchi va olim suhbatidan ayon bo’ladi. Shu suhbatda I. Sultonning shunday gaplari bor: “Bularning bari xalq tilida aytib yuriladigan turli hikmatlarning chuqur ma’nolarini ham isbotlab turibdi. Masalan, ayolning muqaddasligi, onaning mo’tabarligi haqida juda ko’p maqolu matallarimiz bor. Genetika fanining ta’kidlashicha, sulola “kalit”lari ayolda saqlanar ekan. Avlodlarni dunyoga keltiradigan, asrab-avaylab ulg’aytiradigan ham ayoldir. Ularni qanchalar e’zozlash kerakligi haqidagi xalqona hikmatlarimiz fan yorug’ida mana shunday isbot topganiga qarang. Ayol guldan nozik yoki qiz bolaga og’ir yumush qildirma, degan azaliy hikmatlarni esga soladi. Xalq o’z qizlarini, ayollarini, onalarini qanday e’zozlashining sabablariga qarang!”. Xizr, laylatulqadr haqidagi matalu afsonalar ham genetik olimning bolaligi haqidagi xotiralariga uyg’un beriladi. Mifopoetika intellektual-falsafiy romanning asosiy belgilaridan ekanini inobatga oladigan bo’lsak, yozuvchi turli afsona, rivoyatlar, xalq inonch-e’tiqodlari, urf-odatlarini badiiy syujetga uyg’unlashtirish orqali ma’rifatli xalqning muhtasham badiiy siymosini yaratgan.

Umuman olganda, romanni xalq donoligi, udumlari, inonch-e’tiqodi, afsonalarining o’ziga xos ensiklopediyasi deyish mumkin. Mana, romanda keltirilgan xalqona udum-u tutumlarning ayrimlari: non yerga tushsa, puf-puflab ko’zga surish kerak; nonni teskari qo’yma; sutni yerga to’kma; bolaning qulog’i og’risa onaning sutini sog’ish kerak; qiblaga qarab “choptirma”; kechasi tashqariga bir o’zing chiqma; nonni o’ng qo’ling bilan ye – qo’ling shol bo’lib qoladi va h.k. Aslida xalqona bu odat, tutum va urflarning ko’pchiligi islomiy taomillardan, sunnatlardan hisoblanadi. Masalan, Sofiya xolaning nonni o’ng qo’li bilan yeyish, chumoliga ham ozor yetkazmaslik haqidagi tanbehlari zamirida ham islomiy ma’rifat yotadi. Romanda Sofiya xola bilan bola o’rtasidagi mana shunday dialog berilgan: “Dasturxon ustida goho tanbeh ham berardi:

Nonni o’ng qo’ling bilan ye!

Chap qo’lim bilan yesam nima qipti?

Chap qo’ling bilan yesang, qurib shol bo’lib qoladi”³¹.

²⁹ Султон И. Генетик // “Ёшлик” журналы, 2016 йил, 10-11-сон.

³⁰ Султон И. Генетик // “Ёшлик” журналы, 2016 йил, 10-11-сон.

³¹ Султон И. Генетик // “Ёшлик” журналы, 2016 йил, 10-11-сон.

Endi hadisi shariflarga diqqat qilaylik: ularning birida shunday deyiladi: “Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Sizlardan biron kishi ham chap qo‘li bilan yemasin va ichmasin! Chunki shayton chap qo‘li bilan yeydi va ichadi” (Imom Muslim rivoyati). Muhaddislarning ittifoq ila yozishlaricha, bu hadis Umar ibn Abi Salama (r.a.) tomonidan ham rivoyat qilingan. U shunday deydi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qaramoqlari ostidagi yosh bola edim. Ovqat yeganda qo‘lim tovoq ustida kezib yurar edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga “Ey bolam, “Bismillah” degin, o‘ng qo‘ling bilan yegin, o‘z oldingdan yegin”, dedilar. Tag‘in bir hadis shunday: “Salama ibn al-Akva’ roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Bir kishi Rasululloh (s.a.v.)ning oldilarida chap qo‘li bilan yedi. U zot: “O‘ng qo‘ling bilan ye!” degan edilar, u “Yeyolmayman”, dedi. “Yeyolmagin” dedilar. Uning kibri bundan to‘sgan edi. Shundan so‘ng u qo‘lini og‘ziga olib bora olmadi” (Imom Muslim rivoyati).

Demak, romanda Sofiya xola tomonidan aytilgan, xalqona bo‘lib ko‘ringan nasihat ostida aslida ovqatlanish odobiga oid islomiy tarbiya yashiringan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) yemak-ichmakni o‘ng qo‘lda qilish islomiy odobtalabi ekanini aytish va shunga buyurish bilan birga shayton chap qo‘lda yeyishidan xabar berganlar. Yuqoridagi hadislardan chap qo‘l bilan yemaslikdan qattiq ogohlantirganlari, bu buyruqqa amal qilmagan kishini duoibad qilganlari va u odamning qo‘li ishlamay qolganini bilib olamiz. Demak, Sofiya xolaning yuqoridagi gaplari to‘laligicha hadisga muvofiqdir.

Bobning ikkinchi fasli “*“Boqiy darbadar” romanida inson, borliq va Yaratuvchi munosabatlarining tasavvufiy-zamonaviy interpretatsiyasi*” deb nomlanadi. Romanda hamma davrlar falsafasining eng muhim masalasi – odam va uning o‘z Parvardigori bilan munosabati, inson va borliq munosabatlari, inson umrining mazmuni, fano va baqo singari falsafiy masalalar badiiy talqin qilingan. Adib bu muammoni an‘anaviy yo‘sinda, an‘anaviy syujet vositasida emas, mutlaqo yangicha bir usulda talqin qiladi. Jahon adabiyotida “Boqiy darbadar” mavzusida ingliz yozuvchisi Charlz Metyurenning “Darbador Melmot”, fransuz adibi Ejen Syunning “Agasfer” romanlari, Luis Borxesning “O‘lmaydigan odam” kabi hikoyalari yaratilganligini bilamiz. Bu sayyor mavzu Yevropadagi mavjud rivoyatlardagi afsonalar asosida yoritilgani ham bor narsa. I.Sulton romanida ham syujet voqealari miflar, diniy rivoyatlar, yuksak zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlikda, hatto fantastik yo‘nalishni ham omuxtalashtirgan shaklda rivojlantiriladi.

Romanning intellektual roman sifatidagi belgisi asar nomidanoq boshlanadi. “Boqiy darbadar” – nasroniylarning asrdan asrga ko‘chib yurishga mahkum bo‘lgan odam haqidagi rivoyatlariga asoslangan. Bu haqda yozuvchining o‘zi shunday deydi: “Bor-yo‘g‘i sakson sahifalik kichkinagina shu roman juda uzoq yozildi, men uni taxminan 1998-yilda boshlagan edim. Muqaddas manzillarini, maqsadlarini yo‘qotib qo‘yib, dunyoda tentirab yurgan odamlar dunyoda ko‘pday tuyular, lekin ifoda uchun shakl topolmas edim. Qiziq-da, bir etikdo‘z Iso alayhissalomga qo‘l ko‘tardi-yu abadiy yashash degan tavqi la‘natga duchor bo‘ldi. Barhayotlik ham musibat bo‘lishi mumkinligi haqida sira o‘ylab ko‘rmagan

ekanman, vaholanki, sonsiz-sanoqsiz insonlar dunyoda mangu qolish ishtiyoqida yelib-yugurmoqdalar”³².

Romanda hikoya qilinishicha, Yaratganning qonunlariga qarshi borish masalasi nafaqat Ziyo kabi musulmon olimlarini, balki boshqa din vakili bo‘lgan olimlarni ham bezovta qiladi. Jumladan, o‘sha xalqaro anjumanda ishtirok etgan Georg Mendel (bu yerda XIX asrda yashagan monax va abbat, mashhur biology-genetik, genetika fani asoschisi, irsiylik nazariyasini yaratgan avstriyalik olim Gregor Iogann Mendelga ishora bor) – sun’iy urchitish va klonlashtirishning genetik muammolari borasida tengi yo‘q daho sifatida dunyo tanigan misrlik zanji olim ham anjumanda bu boradagi xavotirlarini izhor etadi: “Men, genetika mutaxassisi Georg Mendel, umrimning qirq yilini shu fanning turli chigal masalalarini yechishga sarfladim. Jonli borliqlarning gen o‘ramlari qarshisida soatlab termilib o‘tirgan onlarimda doimo shuurimda “Yaratgan Parvardigorimning nizomini buzishga urinib, xato qilmayapmanmi?” degan savol ko‘ndalang turdi. Millionlab variantlarni tahlil qilar ekan, istalgan har bir kombinatsiyadan o‘xshashi yo‘q bir maxluq bino bo‘lishidan har dam cho‘chib yashaganimni sizlarga bildirmoqchima. Umrim o‘tgani va gen tilsimlariga qadam-baqadam yaqinlashib borganim sayin, u “gunoh qilmayapmanmi?” degan savolga aylana bordi. Zotan, bu yerga to‘plangan muhtaram jamoaning har biriga mazkur savol ko‘pdan tanish ekaniga shubham yo‘q. Umrining ufqlarini ko‘rib turgan bir olim uchun esa bunday savollarning ahamiyati g‘oyat ulkan va hatto mudhish tus olishini hammangiz yaxshi bilasiz”³³.

Inson, borliq va Yaratuvchi munosabati, aslida, tasavvufning bosh masalasidir. “Tasavvuf inson va insoniylik ustida bahs yuritadi. Kishiga uning o‘z nafsi borasidagi eng zarur ma’lumotlarni, boshqa insonlar bilan munosabatlaridagi eng muhim ijtimoiy odobni, banda bilan Robbi orasidagi bog‘lanishda unga foyda va zarar beradigan narsalarni o‘rgatish orqali Islomning mohiyatini anglatadi”³⁴.

Isajon Sul-ton tasavvufning mana shu bosh masalasini zamonaviy fanniy yutuqlar bilan omuxtalashtirgan holda badiiy interpretatsiya qiladi. Kashf qilish vasvasasida ilohiy qonunlarga qarshi borgan va ma’lum lahzada buni tushunib qolgan olimlar timsolida gunoh qilgan, gunoh qilganini anglab qolgan va tavba qilishga, to‘g‘ri yo‘lga tushishga intilayotgan solikni ko‘ramiz. Ular yaratgan sun’iy odamni boqiy darbadarlikka mahkum etgan “Men kimman?” degan savol aslida uni yaratgan olimlarning ham o‘z-o‘ziga berayotgan savolidir. Asarda tasavvufiy ruh mavjudligini romanga so‘ngso‘z yozgan adabiyotshunos olim R. Rahmat ham alohida ta’kidlab o‘tgan edi. U deydiki, “Balki payg‘ambarlardan biri tomonidan qarg‘alib, darbadarlikka duchor etilgan etikdo‘z, shahri Xaybar, g‘ordagi avliyo, g‘aroyib toshbaqa, sahrodagi karvon, mutafakkir maktubi, o‘g‘lidan kelgan xat – bularning bari professorning ong-shuuri, qalbidagi favqulodda jarayonlardir”³⁵.

³² Ўзбек адиби Исажон Султон ижодига чизгилар // <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2012/11/121101>.

³³ Султон И. Бокий дарбадар. – Тошкент: Tilsim, 2023. – Б. 44.

³⁴ Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Тасаввув сирлари. – Тошкент: Мовароуннахр, 2000. – Б. 4.

³⁵ Раҳмат Р. “Муножот”дан “Бокий дарбадар”гача // Султон И. Бокий дарбадар. – Тошкент: Tilsim, 2023. – Б. 136-175.

